**Аннотация:** В статье описаны сущность, значение и виды риска ликвидности как одного из видов финансового риска. С учетом фактора ликвидности предложены пути определения методической основы формирования необходимого уровня доходности инвестиционных операций. Также были даны научно-практические предложения по обеспечению финансовой устойчивости предприятий за счет снижения риска ликвидности.

**Ключевые слова:** риск, риск ликвидности, финансовая устойчивость, актив, обязательство, "риск-доходность", финансовая устойчивость.

## KIRISH

Har bir xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati risklar bilan bog'liq, lekin ular orasida eng xavfli sifatida xo'jalik yurituvchi subyektning to'lov qobiliyatsizligini yuzaga keltiradigan, buning natijasida uning moliyaviy barqarorligini izdan chiqarib, oxir-oqibatda bankrotlikka yetaklaydigan risk turi – bu likvidlik riskidir.

Korxonada likvidlik riski deganda, eng oddiy holatda korxonada tomonidan o'z majburiyatlarini bajara olmaslik ehtimolligi tushuniladi. Bunda quyidagi ikki muhim jihatga alohida to'xtalib o'tamiz: likvidlik va to'lovga qobiliyatlilik. Bu ikki tushuncha garchi bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lsada, ammo mohiyatan farqlanadi. Birinchi tushuncha majburiyatlarni bajarish bo'yicha potentsial imkoniyatlarni anglatadi. Ushbu tushuncha, avvalo aylanma aktivlarning qisqa muddatli majburiyatlardan ortiq bo'lishida namoyon bo'ladi. Ikkinchi tushuncha esa o'sha potentsial imkoniyatni ma'lum bir vaqtda amalga oshirilishini ifodalaydi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, mijozlar oldidagi majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish uchun pul mablag'larini to'lashning jismoniy imkoniyatlari tushuniladi. To'lovga qobiliyatlilikka oid yana bir qarash mavjudki, u kompaniya aktivlarini sotishdagi mumkin bo'lgan yo'qotishlar miqdorini anglatadi, ya'ni korxonada daromad olishning kutilgan hajmidan kam miqdorda daromad olishi nazarda tutilmoqda. Bugungi kunda xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida likvidlik riskining ahamiyati, uning yuzaga kelish sabablari va oldini olish (minimallashtirish) masalalari yetarlicha tadqiq qilinmagan. Maqolada ushbu masalani yoritishga harakat qilamiz.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy barqarorlik tushunchasiga olimlar tomonidan bildirilgan turlicha yondashuvlar mavjud. Jumladan, I.A.Pavlovaning fikriga ko'ra, korxonada moliyaviy barqarorligining mohiyati "uning shunday moliyaviy holatidirki, unda korxonaning xo'jalik faoliyati uning barcha majburiyatlarini ta'minlashga imkon beradi" [1].



Rus olimlari tomonidan moliyaviy barqarorlik tadqiqot obekti sifatida keng o'rganilgan. Jumladan, G.V.Sa-viskaya tomonidan moliyaviy barqarorlikka xo'jalik yurituvchi subyektning o'zgaruvchan ichki va tashqi muhit sharoitida faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi, o'z aktivlari va passivlari muvozanatini saqlash qobiliyati, bu uning doimiy to'lov qobiliyati va maqbul darajada investitsion jozibadorligi kafolatlanishi degan fikrlar ilgari surilgan [2].

N.K. Vasileva boshchiligidagi bir guruh olimlar korxonalarining moliyaviy barqarorligini tahlil qilgan ekanlar, asosiy e'tiborni korxonada mavjud aktivlar va ularning majburiyatlar bilan nisbatiga qaratishgan. Korxonalar moliyaviy barqarorligini tahlil qilish orqali korxonaning doimiy to'lovqobiliyati ehtimoligini baholash mumkin bo'ladi. Moliyaviy barqarorlik va likvidlik riskini tahlil qilishning asosiy vazifasi korxonalar xo'jalik faoliyatida uchrashi mumkin bo'lgan risklarni o'z vaqtida aniqlash, shuningdek korxonaning moliyaviy holatini oshirish va to'lov qobiliyatini yaxshilash uchun talab etiladigan zaxiralarni qidirib topishdan iborat.

V.R.Bank tomonidan korxonaning moliyaviy barqarorligiga maqbul risk sharoitida uzluksiz ishlash, yetarli rentabellik va majburiyatlarni o'z vaqtida to'lash qobiliyatini ta'minlaydigan moliyaviy resurslar, ularni taqsimlash va ishlatish holatini ifodalaydi degan ta'rif berilgan [3].

A.D. Sheremet korxonalarining moliyaviy barqarorligi qoniqarli balans tuzilishi bilan tavsiflanadi va iqtisodiy faoliyatning moliyaviy natijalarini aks ettiradi deya ta'kidlab, moliyaviy barqarorlikni korxonada buxgalteriya balansida aks ettirilgan aktiv va majburiyatlarni o'zaro taqqoslash hamda ijobiy moliyaviy natijalarga erishish orqali yoritgan [4].

Moliyaviy barqarorlik va likvidlik riskining o'zaro bog'liqligi I.A. Pavlovaning ishlarida ham ko'zga tashlanadi. Uning fikricha, korxonada moliyaviy barqarorligining mohiyati korxonaning shunday moliyaviy holatidirki, unda korxonaning xo'jalik faoliyati uning barcha majburiyatlarini ta'minlashga imkon beradi. Bu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, korxonada aktivlar hajmi majburiyatlarni qoplash uchun yetarli bo'lganda moliyaviy barqarorligi ham talab darajasida bo'ladi [5].

Milliy iqtisodchi olimlarimiz tomonidan ham korxonalarining moliyaviy barqarorligi va likvidligiga to'xtalib o'tilgan.

Xususan, T.S. Malikov xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini umumiy (avtonomiya koeffitsiyenti, qarz kapitalining konsentratsiyalashuvi koeffitsiyenti, qarz va o'z mablag'larining nisbati koeffitsiyenti) va nisbiy ko'rsatkichlari (zaxira va xarajatlarning o'z kapitali bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti, moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti, o'z kapitalining manyovrchilik koeffitsiyenti) holda moliyaviy koeffitsiyentlar asosida ifodalaydi [6].

M.Q.Pardayev va B.I.Isroilovlar esa moliyaviy barqarorlikni korxonada o'z mablag'lari va barcha mablag'larning nisbati sifatida talqin qilishadi [7].

E.A.Akramov moliyaviy mustahkamlik tushunchasi va uning ko'rsatkichlarini tavsiya etgan, unga ta'sir etuvchi omillarni asoslab bergan. Shuningdek, u moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichining korxonaning moliyaviy holatini zaruriy bir xil darajada turishi va pasaymasligini ifodalovchi ko'rsatkich ekanligini ta'kidlaydi [8].

Bizning fikrimizcha, korxonaning moliyaviy barqarorligi – bu uning o'zgaruvchan ichki va tashqi muhitda faoliyat yuritish va rivojlanish qobiliyati, o'zining doimiy to'lovga layoqatligini va investitsion jozibadorligini saqlab qolish uchun aktiv va passivlarining muvozanatini saqlab qolishi bo'lib, maqbul risk darajasi sharoitida foyda va kapitalning o'sishiga asoslangan va korxonada rivojlanishini ta'minlaydigan moliyaviy resurslari holatidir. Korxonada moliyaviy barqarorligi uning butun moliyaviy-xo'jalik faoliyati jarayonida shakllanadi va daromadlarning harajatlardan barqaror oshishini o'zida aks ettiradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar, ma'lumotlarni guruhlash, mantiqiy tahlil, qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Likvidlik riski shunday risk turiki, bunda XYUS faoliyatida moliyaviy majburiyatlarini, moliyaviy aktivlar bo'yicha to'lovlarni bajarish jarayonida muammolar yuzaga keladi.

Bundan tashqari, likvidlik riski korxonaning ma'lum bir sanada o'zining moliyaviy majburiyatlari (mol yetkazib beruvchilarga kreditorlik qarzi, kreditlar bo'yicha majburiyatlar)ni o'z vaqtida va to'liq hajmda bajara olish imkoniyatining kamayishi bilan bog'liqdir.

Likvidlik riskining ikki turi kuzatiladi:

- Bozor likvidligi riski – majburiyatlarni bajarish maqsadida aktivlarning o'z vaqtida pulga aylana olmasligi hisoblanadi. Bunda aksariyat holatlarda aktivlar chegirma asosida realizatsiya qilinishi natijasida zarar ko'rish holatlari uchraydi. Aktivlar bozor holati, ya'ni unga talabning yo'qligi tufayli talab etilgan vaqtda pulga aylanmaslik holati kuzatiladi;



- Balans likvidligi riski – aktivlar qiymati majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo'lmaganda yuzaga keladi.

Likvidlik riski korxonalarining moliyaviy barqarorligi bilan chambarchas bog'liq.

Moliyaviy strategiyani to'g'ri shakllantirish korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shunday qilib, moliyaviy barqarorlik korxonalar faoliyatini moliyalashtirish manbalariga bevosita bog'liq. Shu munosabat bilan alohida ta'kidlash lozimki, iqtisodiy tizimning eng muhim tarkibiy qismi hisoblangan korxonalarining moliyaviy barqarorligi mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishishda muhim ahamiyatga ega. Chunki, moliyaviy barqarorlik va unga erishish xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyat yuritish qobiliyatini ta'minlashning garovi hamda uning mustahkam mavqe'ga ega bo'lishining asosi sifatida xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, moliyaviy barqarorlik, korxonaning o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi moliyaviy imkoniyatlarini aniqlash muhim iqtisodiy muammolar jumlasiga kiradi. Korxonalar faoliyatida moliyaviy barqarorlikni baholash usullarining chegaralari va ularning butun tizimidan eng samarali foydalanish imkoniyatlari, ko'rsatkichlar algoritmi va ularni talqin etish, mulkchilik va tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning mezonlarini tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

Professor T.M.Malikovning fikricha, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligi quyidagilar bilan tavsiflanadi:


- tashqi qarz manbalardan moliyaviy mustaqillik;
- moliyaviy resurslardan erkin va samarali foydalanish borasida XYUSning qobiliyati;
- xo'jalik faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan o'z mablag'lari miqdorining XYUSda barqaror mavjudligi <sup>[6]</sup>.

Korxonalar moliyaviy barqarorligini tahlil qilish va baholash asosida nafaqat korxonalar moliyaviy resurslarini samarali shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish, balki bu jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni ham aniqlab, ularning salbiy ta'sirini minimallashtirish yotadi. Moliyaviy barqarorlik hamda likvidlik riskining tahlili tahlil qilinayotgan davr mobaynida korxonalar o'zining moliyaviy resurslarini quyidagi vazifalarni yechish uchun o'z vaqtida va qanchalik to'g'ri boshqarganligini aniqlashga imkon beradi:

- yuqori talabga ega mahsulotni ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash;
- mahsulot realizatsiya qilinishining uzluksizligini ta'minlash;
- innovatsion asosda ishlab chiqarish bazasini kengaytirish va modernizatsiyalash.

Korxonalar moliyaviy barqarorligi va likvidlik riskini tahlil qilishda moliyaviy barqarorlik holatini ifodalovchi moliyaviy koeffitsiyentlarga tayanish muhim ahamiyatga ega. Korxonaning moliyaviy barqarorligini baholashda va ular orqali risk darajasini aniqlashda birinchi navbatda likvidlik ko'rsatkichlarining o'zi, shuningdek rentabellik, to'lovga qobiliyatlilik, foydalilik, aktivlar va korxonalar (aksionerlik kapitali)dan foydalanishni aks ettiruvchi bir guruh ko'rsatkich (koeffitsiyent)lardan foydalaniladi.

Aktivlarning likvidlik darajasi bo'yicha guruhlanishi 1-chizmada keltirilgan.



1-chizma: Likvidlik darajasi bo'yicha korxonalar aktivlarining guruhlanishi



Korxonada balans likvidligini baholash maqsadida balans aktiv va passiv ko'rsatkichlarini quyidagi ikki xususiyatiga ko'ra guruhlash va ularni taqqoslash likvidlik riskining darajasini aniqlashga imkon beradi:

- Likvidlikning pasayish darajasi bo'yicha (aktiv);
- Qoplash muddati darajasi bo'yicha (passiv).

Aktivlarni pul mablag'lariga aylanish tezligi bo'yicha hamda passivlarni qaytarish muddatidan kelib chiqib guruhga ajratish mumkin [1-chizmada keltirilgan ( $A_1 - A_4, P_1 - P_4$ )].

Balans likvidligini aniqlashda balans aktiv va passiv guruhlarini o'zaro taqqoslanadi. Balans mutloq likvidligi shartlari quyidagicha bo'ladi:

$$\begin{aligned} A_1 &\geq P_1; \\ A_2 &\geq P_2; \\ A_3 &\geq P_3; \\ A_4 &\leq P_4. \end{aligned}$$

Agar yuqorida keltirilgan birinchi uchta tengsizlik bajarilsa, demak balans mutloq likvid hisoblanadi. To'rtinchi tengsizlik esa balanslashtirish ma'nosini beradi, ya'ni ushbu tengsizlikning bajarilishi korxonada o'z aylanma mablag'larining borligini anglatadi va biz buni quyidagicha ifodalaymiz:

$$O'am = O'mm - Avq,$$

Bu yerda:

$O'am$  – o'z aylanma mablag'larining mavjudligi;

$O'mm$  – o'z mablag'lari manbai (balans passivi I-bo'limi jami);

$Avq$  – asosiy vositalar va quyilmalar (balans aktivi I-bo'limi jami).

Agarda yuqorida keltirilgan tengsizliklardan birortasi qayd etilgan optimal variantdan chetlashsa, unda balans likvidligi uning absolyut likvidligidan farqlanadi va natijada korxonada likvidlik riski yuzaga kelayotganligidan dalolat beradi (1-jadval).

1-jadval: Korxonalarda balans likvidligi asosida likvidlik riskini baholash

Likvidlik holatining turlari			
Shartlar			
$A_1 \geq P_1;$	$A_1 < P_1;$	$A_1 < P_1;$	$A_1 < P_1;$
$A_2 \geq P_2;$	$A_2 \geq P_2;$	$A_2 < P_2;$	$A_2 < P_2;$
$A_3 \geq P_3;$	$A_3 \geq P_3;$	$A_3 \geq P_3;$	$A_3 < P_3;$
$A_4 \leq P_4$	$A_4 \approx P_4$	$A_4 \approx P_4$	$A_4 > P_4$
Mutloq likvidlik	Yo'l qo'yiladigan likvidlik	Buzilgan likvidlik	Krizisli likvidlik
Likvidlik riskini baholash			
Risksiz zona	Yo'l qo'yiladigan risk zonasi	Kritik risk zonasi	Katastrofik risk zonasi

Nazariy jihatdan aktivlarning biror guruhida yetishmovchilik kuzatilsa, u boshqa guruh aktivlari bilan qoplashi mumkin. Ammo amaliyotda past likvidli aktivlar tez likvidli aktivlarning o'rnini bosa olmaydi.

- $A_1-P_1$  va  $A_2-P_2$  aktiv hamda passivlar guruhining taqqoslanishi korxonaning joriy likvidligini aks ettirib, yaqin orada uning to'lovga qobiliyatligi (to'lovga qobiliyatsizligi)dan dalolat beradi;
- $A_3-P_3$  tengsizligi esa istiqbolli likvidlikni aks ettiradi va unga tayanib korxonaning uzoq muddatli to'lovga qobiliyatligi bashorat qilinadi.

Korxonada balansning likvidligi likvidlikni aniqlashning an'anaviy ko'rsatkichlari asosida tahlil qilinadi va olingan natijalardan kelib chiqib balansning absolyut likvidlikning barcha mezonlariga qay darajada javob berishini aniqlash imkoniyati yaratiladi. Natijada korxonada davr boshi va davr oxirida nafaqat passivlarning balansda qayd etilgan majburiyatlarning istalgan turi bo'yicha majburiyatlarini, balki quyida keltirilgan majburiyatlarni ham qoplay oladi:

- Ishlab chiqarilayotgan tovarlar bo'yicha yuzaga kelgan majburiyatlar (sifatni oshirish, reklama, iste'molchilarning tomonidan yuqori baholanishi, raqobatchilarga nisbatan iste'mol sifatlarini oshirish va h.k.);
- Servis bo'yicha majburiyatlar (servisning o'z vaqtidaligi va to'liqligi, servisning jozibadorligi, sotuvdan keyingi servisning yo'lga qo'yilganligi va h.k.);
- Narx bo'yicha majburiyatlar (tovarning iste'molchilar tomonidan yuqori baholanganda, yuqori sifat va to'liq servisdan narxning jozibadorligi va h.k.) va b.

Investitsiyalarning likvidlik darajasini baholashning uslubiy jihati bunday baholashni mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar orqali amalga oshirishni talab etadi.

Likvidlikni baholashning asosiy mutlaq ko'rsatkichi bo'lib mavjud investitsiya obektini amalga oshirishning mumkin bo'lgan davri hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich quyidagicha aniqlanadi:

$$ULd = Kd - Td$$

ULd – investitsiya obektining umumiy likvidlik davri;

Kd – investitsiya obektini pul mablag'iga konversiya qilish mumkin bo'lgan umumiy davr, kunlarda;

Td – investitsiya obektini mutloq likvidlik bilan pul mablag'iga konversiya qilishning texnik davri, odatda 7 kun olinadi.

Investitsiya darajasini baholashning asosiy nisbiy ko'rsatkichi bu ularning likvidlik ko'rsatkichi hisoblanib, quyidagicha aniqlanadi:

$$LKi = \frac{T_d}{K_d}$$

Bu yerda: LKi – investitsiya likvidligi ko'rsatkichi;

T<sub>d</sub> – investitsiya obektini mutloq likvidlik bilan pul mablag'iga konversiya qilishning texnik davri, odatda 7 kun olinadi.

K<sub>d</sub> – investitsiya obektini pul mablag'iga konversiya qilish mumkin bo'lgan umumiy davr, kunlarda.

Likvidlik omilini e'tiborga olgan holda investitsion operatsiyalarning kerakli daromadlik darajasini shakllantirishning uslubiy vositasi "daromadlik-likvidlik" shkalasini aniqlovchi quyidagi ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligiga asoslanadi:

1. Likvidlik uchun talab etiladigan mukofot darajasini aniqlash quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$M_i = \frac{UL_d \times d_{ml}}{360}$$


Bu yerda:

M<sub>i</sub> – likvidlik uchun talab etiladigan mukofot darajasi, % da;

UL<sub>d</sub> – investitsiya obektining umumiy likvidlik davri;

d<sub>ml</sub> – mutlaq likvidlikka ega investitsion obektlar bo'yicha o'rtacha yillik daromadlik darajasi, %da.

Investorning iqtisodiy xulq-atvori barcha boshqa sharoitlar teng bo'lganda yuqori likvidli investitsion obektlarni tanlashga yo'naltirilgan bo'ladi, bu esa unga investitsiya portfelini boshqarish jarayonida moliyaviy resurslar bilan manevr qilish imkonini beradi. Investor o'rta va past likvidli investitsiya obektlarini tanlashdan manfaatdor bo'lishi uchun u qo'shimcha investitsiya daromadi shaklida ma'lum rag'batlantirishga ega bo'lishi kerak. Investitsiya obektining likvidlik darajasi (koeffitsiyenti) qanchalik past bo'lsa, investitsiya daromadi yoki likvidlik mukofoti miqdori shunchalik yuqori bo'lishi kerak. Bu bog'liqlikni quyidagi chizma orqali ifodalaymiz:



2-chizma: Investitsiya obekti likvidlik darajasining investitsiya daromadi yoki likvidlik mukofoti miqdoriga ta'siri



2. Likvidlik omilini hisobga olgan holda talab etiladigan umumiy daromadlik darajasi (dul) ni aniqlash quyidagi formula asosida amalga oshiriladi:

$$d_{ul} = d_{ml} + M_1$$

bu yerda:

$d_{ul}$  – likvidlik omilini hisobga olgan holda talab etiladigan umumiy daromadlik darajasi;

$d_{ml}$  – mutlaq likvid investitsion loyiha (vosita) bo'yicha o'rtacha yillik daromadlik darajasi, %da;

$M_1$  – likvidlik uchun talab etiladigan mukofot darajasi, % da.

Likvidlik omilini hisobga olgan holda pul mablag'lari qiymatini baholashning uslubiy vositasi taqqoslanuvchi va talab etiladigan likvidlik darajasini ta'minlovchi investitsion oqimlarni shakllantirish imkonini beradi.

Likvidlik omilini hisobga olgan holda pul mablag'larining o'sish qiymatini baholashda quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$FV_1 = D_{od} * [(1 + d_{ml}) * (1 + M_1)]^n$$

Bu yerda:

$FV_1$  – likvidlik omilini hisobga olgan holda moliyaviy vosita (pul mablag'lari)ning kelajakdagi (o'sish) qiymati;

$D_{od}$  – mutlaq likvid investitsion loyiha (vosita) bo'yicha o'rtacha yillik daromad darajasi, o'nli kasrda ifodalangan;

$d_{ml}$  – mutlaq likvidlikka ega investitsion obektlar bo'yicha o'rtacha yillik daromadlik darajasi, %da;

$M_1$  – likvidlik uchun talab etiladigan mukofot darajasi, o'nli kasrda ifodalangan;

$n$  – umumiy shartlangan muddat davomida har bir to'lov amalga oshiriladigan davrlar soni.

Likvidlik omilini hisobga olgan holda pul mablag'larining joriy qiymatini baholashda quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$D_{od} = \frac{FV_1}{[(1 + d_{ml}) * (1 + M_1)]^n}$$

$D_{od}$  – likvidlik omilini hisobga olgan holda pul mablag'larining joriy qiymati (mutlaq likvid investitsion loyiha (vosita) bo'yicha o'rtacha yillik daromad darajasi), o'nli kasrda ifodalangan;

$FV_1$  – likvidlik omilini hisobga olgan holda moliyaviy vosita (pul mablag'lari)ning kelajakdagi (o'sish) qiymati;

$d_{ml}$  – mutlaq likvidlikka ega investitsion obektlar bo'yicha o'rtacha yillik daromadlik darajasi, %da;

$M_1$  – likvidlik uchun talab etiladigan mukofot darajasi, o'nli kasrda ifodalangan;

$n$  – umumiy shartlangan muddat davomida har bir to'lov amalga oshiriladigan davrlar soni.

**Misol:** Mijoz bankka 1000 AQSH dollari miqdoridagi mablag'ni 60 kunga muddatli omonatga joylashtirdi. Agar talab qilib olingungacha daromad darajasi 1,5 % bo'lsa, konversiyaning umumiy davri, quyilmaning likvidlik koeffitsiyenti, likvidlik uchun mukofot darajasi, likvidlik omilini hisobga olgan holda umumiy daromadlik darajasi va quyilmaning kelajakdagi o'sish qiymatini aniqlang.

Quyilma 60 kunga qo'yilganligi sababli, investitsiya obektini pul mablag'iga konversiya qilish mumkin bo'lgan umumiy davri  $K_d = 60$  bo'ladi. Unda konversiyaning umumiy davri  $UL_d = K_d - T_d = 60 - 7 = 53$  kun,

$$\text{Investitsiyalar likvidlik koeffitsiyenti } LKi = \frac{T_d}{K_d} = \frac{7}{60} = 0,117.$$

Likvidlik uchun talab etiladigan mukofot darajasi quyidagicha

$$M_1 = \frac{UL_d \times d_{ml}}{360} = \frac{53 \times 1,5}{360} = 0,221 \%$$

(omonat 60 kundan keyin to'lanishi kerak, ya'ni iuyilma likvidligi yuqori, likvidlik mukofoti darajasi esa past). Likvidlik omilini hisobga olgan holda talab etiladigan umumiy daromadlik darajasi

$$d_{ul} = d_{ml} + M_1 = 1,5 + 0,221 = 1,721\%.$$

Omonat muddati 60 kun, ya'ni  $n = 60$  kun = 0,167 yil, likvidlik omilini hisobga olgan holda o'sish qiymati

$$FV_1 = 1000 * [(1 + 0,015) * (1 + 0,00221)]^{0,167} = 1000 * 1,01724^{0,167} = 1002,85 \text{ AQSH dollarini tashkil etadi.}$$

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Demak, korxonalarning moliyaviy barqarorligi ko'p jihatdan moliyaviy koeffitsiyentlar orqali aniqlanadi. Moliyaviy koeffitsiyentlarni baholash va tahlil qilish korxonaning absolyut moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini baholashni yanada kengaytirib, bu orqali likvidlik riskining oldini olishga ko'maklashadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, O'zbekiston amaliyotida xo'jalik yurituvchi subyektlar, ayniqsa korxonalar moliyaviy holatini kompleks o'rganish amaliyotida moliyaviy barqarorlik va likvidlik riskini o'zaro bog'liqlikda tahlil qilishga juda kam hollardagina murojaat qilinadi. Birorta manbada korxonalar xo'jalik yurituvchi subyektlar ma'lumotlari asosidagi real tahliliy ma'lumotlarni deyarli uchratmaymiz. Bu holat moliyaviy ko'rsatkichlarning yillar kesimidagi dinamik o'zgarishlarida ham kuzatiladi.

Shu sababli, korxonada moliyaviy barqarorlik va likvidlik riskini tahlil qilishda quyidagilarga alohida e'tibor berish lozim:

- chop etiladigan manbalarda ko'rsatkichlarning hisob-kitoblarida ma'lumotlar moliyaviy hisobotlarning aynan qaysi shakli va satrlaridan olinganligini aniq ko'rsatish lozim. Shu orqali ularning aniqligini va bir xilligini ta'minlash mumkin;
- milliy kredit bozorida korxonani tanlash, ya'ni uning moliyaviy holatini baholash orqali tegishli qarorni qabul qilish uchun maxsus yo'riqnoma ishlab chiqish lozim. Ushbu yo'riqnomada lizing munosabatlarida korxonalar faoliyatining o'ziga xosligi, faoliyat sohasi, lizing muddati kabi omillardan kelib chiqib, korxonaning moliyaviy holatini aniqlash imkonini beradigan zaruriy ko'rsatkichlarni aniq belgilab o'tish lozim.

### Adabiyotlar:

1. Pavlova I.A. Analiz i prognozirovaniye finansovoy ustoychivosti organizatsii s ucheto m jiznennogo sikla na osnove integralnogo pokazatelya // Finansoviy menedjment. 23 (263) – 2007.
2. Savitskaya G.V. Analiz xozyaystvennoy deyatelnosti predpriyatiya: uchebnyk. – 5-ye izd., pererab. I dop. – M.: INFRA-M, 2009. 536 s.
3. Bank V. R. Finansoviy analiz: ucheb. posobiye. / Bank S. V., Taraskina L. V. – M.: TK Velbi, Izd-vo Prospekt, 2006. – 344 s.
4. Sheremet A.D. Teoriya ekonomicheskogo analiza: Uchebny kurs. – 2-ye izd., pererab. i dop. – M.: INFRA-M, 2009. – 365 s.
5. Pavlova I.A. Analiz i prognozirovaniye finansovoy ustoychivosti organizatsii s ucheto m jiznennogo sikla na osnove integralnogo pokazatelya // Finansi i kredit. – 2017 g. 23 (iyun). – s. 71-75.
6. Malikov T.S., Olimjonov O.O. Moliya. Darslik / Toshkent Moliya instituti. – Toshkent: 2019. – 969 b.
7. Pardayev M.Q., Isroilov B.I. Moliyaviy tahlil: (Uslubiy ko'rgazmalar va tavsiyalar albomi). – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1999. – 197 b.
8. Akramov E.A. Korxonalarning moliyaviy holati tahlili. – T.: Moliya, 2003. – B. 64-85.

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 4**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

